



PROTECTION OF YOUTH RIGHTS: ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES

Gavharkhon Mukhutdinova

Trainee teacher, National University of Uzbekistan

Doniyor Jumaboyev

*Trainee teacher, National University of Uzbekistan
Tashken, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: youth rights, international experience, UN, European Union, legal protection, youth policy, information security, political participation, civil society, right to education, social protection.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article explores the protection of youth rights on an international scale, analyzing advanced international practices, including legal frameworks, programmatic approaches, and institutional mechanisms developed by the UN, the European Union, and other developed nations. The paper emphasizes key areas such as the right to education, healthy lifestyle choices, labor market access, information security, and political participation.

YOSHLAR HUQUQLARINING HIMOYA QILINISHI: ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Gavharxon Mansurxonovna

O'zbekiston milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi

Doniyor Jumaboyev

*O'zbekiston milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar huquqlari, xalqaro tajriba, BMT, Yevropa Ittifoqi, huquqiy himoya, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi, siyosiy ishtirok, fuqarolik jamiyati, ta'lim huquqi, ijtimoiy himoya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar huquqlarining xalqaro miqyosda himoya qilinishi, ilg'or xorijiy tajribalar asosida BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy asoslar, dasturiy yondashuvlar va institutsional mexanizmlari hamda yoshlarning ta'lim olish, sog'lom turmush tarzini tanlash, mehnat bozoriga kirish, axborot xavfsizligi va siyosiy hayotda ishtirok etish huquqlarini himoya

qilish bo'yicha xalqaro tajribalarning dolzarb jihatlari tahlil qilingan.

ЗАЩИТА ПРАВ МОЛОДЕЖИ: ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Гавхархон Мухутдинова

Стажёр-преподаватель Национального университета Узбекистана

Дониёр Джумабоев

Стажёр-преподаватель Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: права молодежи, международный опыт, ООН, Европейский союз, правовая защита, молодежная политика, информационная безопасность, политическое участие, гражданское общество, право на образование, социальная защита.

Аннотация: В статье рассматривается защита прав молодежи на международном уровне, а также анализируются передовые зарубежные практики, в том числе правовые основы, программные подходы и институциональные механизмы, разработанные ООН, Европейским союзом и другими развитыми странами. Основное внимание уделяется обеспечению прав молодежи на образование, выбор здорового образа жизни, доступ к рынку труда, информационную безопасность и участие в политической жизни.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga oid siyosat har bir davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki yosh avlod – har qanday millatning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi strategik kuchdir. Shu bois ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoshlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish borasida samarali huquqiy mexanizmlar va institutsional tizimlarni ishlab chiqqan.

Bugungi globallashuv va demografik o'zgarishlar sharoitida yoshlar jahon aholisining sezilarli qismini tashkil etishi bilan ahamiyatli ijtimoiy-demografik guruh sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, huquq va manfaatlarini kafolatlash masalasi zamonaviy davlatchilikning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini institutsional himoya qilishda har bir davlat o'z konstitutsiyaviy va huquqiy mexanizmlariga asoslanib, ijtimoiy siyosat doirasida yoshlar masalalariga oid maxsus normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishi va ularning amaliy ijrosini ta'minlovchi institutsional tizimlarni shakllantirishi zarur.

O'zbekiston tajribasi misolida olib qaralganda, bugungi kunga qadar yoshlar siyosati sohasida 40 dan ortiq milliy qonun hujjatlari qabul qilingan, 30 dan ziyod xalqaro huquqiy hujjatlar

ratifikatsiya qilingan[1]. Biroq, xalqaro miqyosda hali-hanuzgacha davlatlar zimmasiga yoshlar siyosati borasida majburiyatlar yuklovchi, yoshlarning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqini aniq belgilovchi va barcha davlatlar tomonidan tan olingan yagona universal xalqaro-huquqiy konvensiya yoki shartnoma mavjud emas.

Bu esa yoshlar huquqlari bo'yicha global darajadagi huquqiy bo'shliqlarning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi va ushbu yo'nalishda kompleks yondashuv asosida universal huquqiy hujjat ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism

Bashariyatning ming yillik tarixiy-sivilizatsion tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday davlat va jamiyatning strategik barqarorligi va istiqboli bevosita yosh avlodning salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, aynan 18–30 yosh oralig'idagi yoshlar – intellektual dinamikasi yuqori, kreativ tafakkurga ega, yangiliklarga ochiq, ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi hamda zamonaviy bilim va kasb kompetensiyalarini egallagan shaxslar har qanday demokratik jamiyatning innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Jahon demografik ko'rsatkichlariga nazar tashlansa, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda 15–24 yoshdagi insonlar soni 1 milliard 200 milliondan oshgan bo'lib, bu umumiy global aholining qariyb 16 foizini tashkil etadi. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 7 foizga ortib, 1 milliard 300 million nafarga yetishi kutilmoqda. Ushbu demografik tendensiya global miqyosda “yoshlar salohiyati”ni rivojlanish resursi sifatida baholash zarurligini anglatadi[2].

Mazkur holat O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Respublikamizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 2024-yil holatiga ko'ra 19 million 600 ming nafardan ortiq bo'lib, bu mamlakat umumiy aholisining 55,6 foizini tashkil etadi. Bu esa demografik dividendning mavjudligini anglatadi va yoshlarni intellektual, ma'naviy, jismoniy va kasbiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash masalalarini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi. Ayniqsa, har yili mehnat bozoriga o'rtacha 600 ming nafar yosh kiritilayotganini hisobga olsak, 10 yil ichida bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetishi prognoz qilinmoqda[2].

Shu bois, mamlakatimizda yoshlar salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida hukumat va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan kompleks, tizimli va institutsional chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, axborot xavfsizligi, innovatsion loyihalar va ijtimoiy himoya kabi sohalarda yoshlar uchun qulay ekotizim yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2020-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan tarixiy nutqida BMTga a'zo davlatlarni “Yoshlar huquqlari to'g'risida”gi xalqaro konvensiyani qabul qilish

tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Mazkur tashabbus, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqaro miqyosda yoshlar huquqlarini institutsional asosda kafolatlashga yo'naltirilgan birinchi kompleks huquqiy-hujjatni ishlab chiqish zaruratini ilgari surgan tarixiy taklif sifatida baholanadi.

Ushbu tashabbusning konseptual ahamiyati shundaki, u global yoshlar siyosatini yagonalashtirish, davlatlarning yoshlar bilan bog'liq majburiyatlarini aniq belgilab berish, hamda yoshlarning ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat, axborot xavfsizligi, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki borasidagi huquqlarini xalqaro darajada huquqiy himoya qilish mexanizmini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu tashabbus zamonaviy xalqaro huquqning yoshlar huquqlari bo'yicha rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beruvchi muhim huquqiy-huquqiy tashabbus sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi globallashtirish va ijtimoiy-siyosiy muhitning murakkab sharoitida yoshlar manfaatlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquqiy mexanizmlarning shakllanishi va takomillashuvi jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yoshlar siyosatiga oid qabul qilgan hujjatlari alohida e'tibor va tahlilga loyiqdir. Yoshlar huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) doirasida qabul qilingan hujjatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Xususan:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948);
- Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989);
- Yoshlar siyosati bo'yicha BMTning global strategiyasi (World Programme of Action for Youth, 1995);

Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil 14-dekabrda 50/81-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan "Yoshlar manfaatlari yo'lida Butunjahon sa'y-harakatlar dasturi" (World Programme of Action for Youth) xalqaro miqyosdagi yoshlar siyosatini huquqiy, institutsional va metodologik asosda muvofiqlashtiruvchi konseptual hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur dastur 2000-yilga qadar va undan keyingi davr uchun mo'ljallangan bo'lib, u yoshlar bilan ishlashga oid 15 ta ustuvor yo'nalishni – ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, giyohvandlikka qarshi kurash, oilaviy hayotga tayyorlash, ekologiya, jinoyatchilik, madaniyat, sport, yoshlar huquqlari va siyosiy ishtirok kabi sohalarni qamrab olgan. Har bir yo'nalishga doir amaliy tavsiyalar va strategik yondashuvlar bilan ta'minlangan ushbu dastur global darajada yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash va fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, u milliy darajadagi davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida xizmat qiluvchi normativ va metodologik hujjat maqomiga ega.

Bundan tashqari, BMT Xavfsizlik Kengashining 2015-yil 9-dekabrda "Yoshlar, tinchlik va xavfsizlik" (Youth, Peace and Security) to'g'risidagi rezolyusiyasi xalqaro hamjamiyat

tomonidan yoshlarning tinchlikni barpo etish va zo‘ravonliklarning oldini olishdagi rolini tan olishda tub burilish yasadi. Ushbu hujjat orqali Xavfsizlik Kengashi a‘zo davlatlarni yoshlarning tinchlikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va inqirozli hududlarda rehabilitatsiya jarayonlarida faol ishtirok etishi uchun institutsional va huquqiy sharoitlar yaratishga chaqirgan[3].

Shu bilan birga, 2015-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Yoshlar va inson huquqlari" rezolyusiyasi yoshlarning inson huquqlarini to‘laqonli amalga oshirishda ishtirokini kengaytirishga doir chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Ushbu rezolyusiyada yoshlarni inson huquqlari bo‘yicha tizimli ravishda o‘qitish, ularning ijtimoiy ongini va fuqarolik mas‘uliyatini oshirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari surilgan[4].

Shu ma’noda, BMT tarixida ilk bor bu borada “Yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish orqali demokratiyani mustahkamlash” nomli Yoshlar strategiyasi qabul qilingani juda muhim. O‘zbekiston 2030 yilgacha mo‘ljallangan BMT Strategiyasini shiddat bilan amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida yoshlar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus “Yoshlar strategiyasi” (EU Youth Strategy 2019–2027) ishlab chiqilgan. Bu strategiya quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

- “Yoshlar ishtiroki” – qarorlar qabul qilish jarayoniga yoshlarni jalb qilish;
- “Foydali bandlik” – mehnat bozoriga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- “Ijtimoiy inklyuzivlik” – imkoniyati cheklangan yoshlar huquqlarini ta‘minlash;
- “Raqamli salohiyat” – yoshlarni media savodxonlik va raqamli xavfsizlik bilan ta‘minlash.

Misol uchun, Germaniyada yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan dasturlar moliyaviy subsidiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi, Fransiyada esa yoshlar uchun "Xavfsiz internet" dasturlari doirasida axborot himoyasi mexanizmlari mustahkamlanmoqda.

AQShda yoshlar huquqlari asosan Federal qonunlar va shtat darajasidagi qonunchilik orqali tartibga solinadi. Maktabdan tashqari ta‘lim, ijtimoiy muhofaza, sog‘lom turmush tarzi, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratiladi. Shuningdek:

- “YouthBuild” dasturi orqali ta‘lim olish va ish bilan bandlik imkoniyatlari yaratiladi;
- “Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act” (1974) esa yoshlar adolat tizimida huquqlarining buzilishini oldini olishga qaratilgan.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda yoshlar huquqlarini himoya qilishda madaniy qadriyatlar, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy adolat tamoyillari uyg‘unlashtirilgan. Masalan:

- Janubiy Koreyada maktab va universitetlarda psixologik maslahat markazlari faoliyat yuritadi;

- Yaponiya yoshlarni mehnat ekspluatatsiyasidan himoya qilish uchun ishchi yoshlar kodeksini ishlab chiqqan;

- Singapurda yoshlar “digital citizen” sifatida o‘rgatiladi, ularga axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash asoslari o‘rgatiladi.

Shu jumladan, Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlariga oid bir necha moddalar o‘z aksini topgan.

“Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shartsharoit yaratadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shartsharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli”[5].

Ushbu hujjatlar yoshlarning ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash, axborot olish, siyosiy ishtirok va madaniy merosdan foydalanish kabi asosiy huquqlarini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan so‘nggi yillarda yoshlar huquqlarini xalqaro miqyosda ilgari surish borasida bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, 2021 yil 12–13 avgust kunlari Toshkent shahrida BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashining 46-sessiyasida ilgari surilgan tashabbus asosida “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida Yoshlar huquqlari bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi o‘tkazildi. Mazkur xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan Toshkent Yoshlar deklaratsiyasida O‘zbekiston

Respublikasining xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi uchta muhim tashabbusi keng e'tirof etildi. Bular:

1. Yoshlar huquqlari bo'yicha BMT Konvensiyasini ishlab chiqish va qabul qilish,
2. Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari Yoshlar kengashini tashkil etish,
3. Markaziy Osiyo yoshlari forumini muntazam o'tkazish tashabbuslaridir.

Bundan tashqari, 2020 yil 12 avgustda — Xalqaro yoshlar kuni munosabati bilan Samarqand shahrida “Yoshlar—2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari” mavzusida xalqaro forum tashkil etildi. Ushbu anjuman yakunida qabul qilingan Samarqand rezolyusiyasida yoshlarning global tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotda tutgan o'rni, shuningdek, ularning qaror qabul qilish jarayonlarida mazmunli va inklyuziv ishtirokini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, 2019 yil 7–8 oktyabr kunlari Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasining 6-seminari bo'lib o'tdi. “Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo'lida yoshlar huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishning ahamiyati” mavzusiga bag'ishlangan mazkur tadbir yakunida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida IHT a'zo davlatlarida yoshlar huquqlarini to'liq ta'minlashga qaratilgan konkret tashabbuslar bayon etildi.

Yana bir muhim hujjat – Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023 yil 11 sentyabrda imzolangan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan kompleks islohotlarni o'z ichiga oladi. Strategiyada belgilangan 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta strategik maqsad belgilangan bo'lib, ularning 44 tasi bevosita inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta ustuvor vazifa belgilangan[2]. Strategiya doirasidagi barcha islohotlarda inson qadri, uning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ustuvor tamoyil sifatida belgilangan.

Mazkur tashabbus va strategik yondashuvlar O'zbekistonda yoshlar huquqlarining huquqiy, ijtimoiy, madaniy va axboriy jihatdan samarali himoya qilinishini ta'minlovchi barqaror institutlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar huquqlarining samarali himoyasi davlatning demokratik tamoyillarga asoslangan siyosati, kuchli fuqarolik jamiyati va axborot makonida yoshlarning ijobiy o'rni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston ham yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ushbu ilg'or tajribalardan foydalangan holda milliy

huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishda davom etmoqda. Kelajakda yoshlar uchun huquqiy, ma'naviy va axboriy himoya mexanizmlarini mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi huquqiy hujjatlar va dasturlar yoshlar siyosatini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini global darajada kafolatlash hamda har bir yosh fuqaroning jamiyat hayotida faol va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ular orqali yoshlar nafaqat huquqiy subyekt sifatida, balki tinchlikparvar, taraqqiyotga hissa qo'shuvchi kuch sifatida tan olinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umurzakova N. M. YOSHLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO MEXANIZMLARI //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 20. – C. 34-38.
2. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси//
<https://parliament.gov.uz/ru/news/yoshlar-huquqlari-imkoniyatlar-va-himoya-qilish-mexanizmlari>
3. Altiok A. et al. Youth, peace, and security //Routledge handbook of peace, security and development. – Routledge, 2020. – C. 433-447.
4. Bersaglio B., Enns C., Kepe T. Youth under construction: The United Nations' representations of youth in the global conversation on the post-2015 development agenda //Canadian Journal of Development Studies/Revue canadienne d'études du développement. – 2015. – T. 36. – №. 1. – C. 57-71.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, 2024.